

PUDRAT SHARTNOMASI

Lot: 164700

181-12-175-OB/2022-son

28«10»2022 yil.

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Xonqa tuman «Obodonlashtirish» boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi rahbari R. Matchonov bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan «XIVA STANDART PLYUS» MChJ nomidan Nizom asosida ish yurituvchi boshlig'i J. Ortiqov ikkinchi tomondan ishlarni bajarishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. Shartnoma mavzusi

1.1. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq shartnoma bo'yicha Xonqa tumani **Toma mahallasi Toma ko'chasini (0.996km) joriy ta'mirlash** ishlarini loyiha-smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan holda bajarish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatlarini oladi.

II. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha pudratchi tomonidan bajarilgan tender natijasida aniqlangan va tender komissiyasining 2022 yil «24» oktyabrdagi tanlov savdosi (tender) natijasiga va tender komissiyasining 2022 yil «24» oktyabrdagi №164700- sonli bayonnomasiga asosan, barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda QQS bilan jami **894 000 000.0**(Sakkiz yuz to'qqson to'rt million) so'mni tashkil qiladi. To'lovlar byudjet mablaglari hisobiga moliyalashtiriladi.

2.2. Qurilishning shartnomaviy narxlarini o'zgartirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

III. Pudratchining majburiyatlari.

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning I- bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga "1" ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda inshoot narxidagi ishlarni eng kamida 50% ni o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
- tanlov natijasi bo'yicha ishlar boshlangan kundan e'tiboran ob'ektni 50 kunda topshirish;
- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikalarini yetkazib berish, ularni qabul qilish tushurish omborga joylash va saqlash;
- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachini Pudrat shartnomalari tuzilishi davomida yordamchi pudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mazmuni, yordamchi pudratchining nomi va manzili to'g'risida habardor qilish;

- qurilish tavakkalchiligini sug'urta qilish.

3.2. Mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzo chekilgandan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari, asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlari, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shati; qurilish maydonini quriqlanishini ta'minlash;

qurilish jarayonida jalb qilingan ishchi xodimlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, ijtimoiy ximoyasi va texnik xafsizligini ta'minlash majburiyatini oladi.

3.3. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha mulk huquqiri o'zida saqlab qoladi. Ob'ektning Buyurtmachiga topshirilgunga qadar, ob'ektning tasodifiy yo'qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'dadi.

3.4. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektni foydalanishga topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

IV. Buyurtmachining majburiyatlari

4.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini, ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;
- ishlar bajarilishi ustidan doimiy qurilishda texnik nazorat va mazkur shartnomaga muvofiq Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshka funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish;
- Pudratchi tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
- moliyalashtirish jadvali 2 ilovaga muvofiq Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;
- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab, bir oy davomida pudratchiga pudrat ishlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi;

4.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma buyicha o'z zimmasiga qabul qilingan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun mobaynida bajarmagan takdirida, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bundan Buyurtmachi pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

V. To'lovlar va hisob kitoblar

5.1. Buyurtmachi Pudratchiga "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2020 yil 20 avgustdagi 84-sonli bayoni qarori 5-bandiga asosan shartnoma bo'yicha 2022 yilda bajariladigan ishlar umumiy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi.

5.2. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (2-ilova)

5.3. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda ishlari bajarish va moliyalashtirish jadvalariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 95 foizigacha doirasida amalga oshiriladi.

5.4. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 5 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzilg'kesil hisobg'kitob qurilish tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin mazkur shartnomada belgilangan kafolatli muddat tamom bo'lgandan keyin - ishlar qiymatining 5 foizigacha miqdorida, biroq moliya yil tugamasdan amalga oshiriladi.

VI. Ishlarni bajarish

6.1. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova kilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

6.2. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini - Texnik nazoratchi tayinlaydi, u Buyurtmachinin nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob uskunalar shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

6.3. Texnik nazoratchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri maboynida ishlarning barcl turlari bilan to'siqsiz tanishish xuquqiga egadir.

6.4. Pudratchi Texnik nazoratchi ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik nazoratchi Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha choralar ko'radi.

6.5. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning 71-bandida ko'rsatilgan muddat bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

-. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

6.6. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchi ortiqcha tuprok va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun ajratish to'g'risidagi xujjatlarni beradi.

6.6. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuprok va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi xujjatlarni beradi.

6.7. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 3 kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni bog'lash (privyazka) uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini takdim etadi.

6.8. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari o'lchamlari bo'lishi va ularning muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

6.9. Pudratchi geodeziya ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarning joylashi sxemalarini va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

6.10. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

6.11. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlov buyumlar, konstruksiyalar va kommunikatsiya tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlarga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

6.12. Alohida berkitilgan konstruksiyalar va berkitilgan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilishni boshlashdan 10 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va boshqa tegishli tashkilotlarni yozma ravishda xabardor qiladi.

6.13. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan ma'sul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning qurilish sohasida nazorat inspeksiya bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

6.14. Pudratchi Buyurtmachining ishlarini bajarish daftariga yozuv kiritilgan holda keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

6.15. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib habardor qilgan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z xisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga va qiymatiga ta'sir etmaganini isbotlasi javobgar xisoblanmaydi.

6.16. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning yordamchi pudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'mirlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

6.17. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash hududlarni, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarini tozalaydi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydonda qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan kqrsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

6.18. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarid ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanas materiallar, asbobg'uskunalar berilishi, xizmatlar kqrsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinish o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaktida yetkazib berilmasiligi bilan bog'liq to'xtab qolishla

qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashni uzil-kesil muddatiga ta'sir qilish mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi. Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qonikmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi. Pudratchi daftarida Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

VII. Ishlarini qo'riqlash.

7.1. Pudratchi ob'ektning Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni xududidagi materiallar, asbob-uskunalar qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

7.2. Tiklangan bino va inshootlar shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulklar ob'ekt qabul qilib olingandan keyin saklanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

VIII. Yengib bo'lmaydigan kuch (FORS-MAJOR) holatlari

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirilgan vaqtda mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar qo'rilishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

IX. Qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish.

9.1. Qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektning foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

9.2. Ob'ektning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchi yozma bildirishnomasini Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 30 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

9.3. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish boshlanishidan besh kun oldin mazkur shartnomaning IV bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibdagi ikki nusxa ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plamini amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

9.4. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

X. Kafolatlar

10.1. Pudratchi:

- barcha ishlar to'liq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarishni;
- loyiha xujjatlari hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq bajarilgan barcha ishlar sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va kommunikatsiya tizimlari sifatini, ularning loyiha xujjatlariga davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida o'z xisobidan bartaraf qilishni;

ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

10.2. Ob'ekt va unga kiradigan muxandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 12 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomonining kafolat muddati kamida 24 oy etib belgilanadi.

10.3. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, uni bartaraf etilgunga qadar foydalanishning davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi, nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

10.4. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlaridagi nuqsonlar, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning V-bo'limida nazarda tutilgan summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

10.5. Pudratchi nuqsonlar va kamchiliklar ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ushbu masala iktisodiy sudda ko'rib chiqiladi.

XI. Shartnomani bekor qilish

11.1. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin ishlar boshlanishi Buyurtmachiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugallashning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga kechiktirilgan holda.
- pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
- pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarining sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilishini talab qilish huquqiga ega.

11.2. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib ko'yilganda;
- buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega;

11.3. Shartnomani bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchi qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish ob'ekti bir oy muddatda Buyurtmachiga topshiriladi. Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

11.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

11.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

11.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

XII. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

12.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarilmagan taqdirda aybdor tomon:

- ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi.
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

12.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorda penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

12.3. Penya to'lashni Buyurtmachini shartnoma shartlari bu zilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

12.4. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortilganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashi rad etgan yoki bosh tortgan summaning 0.5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

12.5. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'daydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

12.6. Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan (pudratchidan) sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar va xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan (pudratchidan) aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

12.7. Penyaning to'lash Pudratchini ishlarini bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod etmaydi.

12.8. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ishchi xujjatlariga muvofik bo'lmasa u holda Buyurtmachi qurilish sohasida nazorat inspektsiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortish, shuningdek Pudratchidan sifatlari zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 0.5 foizi miqdorida undirish huquqiga ega.

12.9. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganlik uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

12.10. Muddati o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

XIII. Nizolarni xal etish tartibi

13.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar xal eta olmasa, ular qonun hujjatlaridan belgilangan tartibda iktisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

XIV. Korruptsiyaga karshi shartlashuv.

14. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

XV. Alohida shartlar

15.1. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi

- 15.4. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.
- 15.5. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchiga qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishiga haklidir.
- 15.6. Shartnoma amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabrga qadar.
- 15.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.
- 15.8. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi.
- 15.9. Mazkur shartnoma tegishli g'aznachilik boshqarmasidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng huquqiy kuchga kiradi.

XVI. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

«Buyurtmachi»

Byudjetdan mablag' oluvchi:

«Obodonlashtirish» boshqarmasi

Manzil: Xonqa tuman Feruz-4 uy

Tel/Faks: 399-10-57

sh/x*:

Byudjetdan mablag' oluvchi STIR i: 206945095

OKONX: 90290

Moliya Vazirligi Yagona g'azna hisob varag'i

-G'azna x/v: 23402000300100001010

Bank nomi: Toshkent sh.Markaziy bankning

Toshkent sh.XKKM

MFO: 00014

Gaznachilik bulinmasi STIR i: 201122919

Rahbar:

R. Matchonov

«Pudratchi»

«XIVA STANDART PLYUS» MChJ

Manzil: Xiva shaxar Gulshan ko'cha 102 uy

Tel/Faks: + 99893 393-12-89

STIR:302 512 018

X/R: 20 208 000 205 022 416 001


MFO: 00811

Bank: Xalq bank Xiva filliali



Rahbar:

J. Ortiqov

	<p>Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.</p>	
	Imzolovchi F.I.SH.	МАТЧАНОВ РАЗЗАКБЕРДИ БЕКЧОНОВИЧ
	Imzolangan sana	28.10.2022 14:21
	Hujjat kodi	FR0062001415
	Hulosa kodi	CM0158875387

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

CM0158875387

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Pudrat shartnoma**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: XONQA TUMANI HOKIMLIGI HUZURIDAGI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI tomonidan 28.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Xonqa tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:




D.O.RAXIMOV
28.10.2022

Хонқа туман Тома маҳалласи Тома кўчасининг (0,996 км) жорий таъмирлаш ишларини бажариш буйича ишларини бажариш

ГРАФИГИ

№	Ишлар тури ва номи	Ҳажм бирлиги ва	2022 йил буйича курилиш киймати												Ишлар тури киймати		
			I-чорак			II-чорак			III-чорак			IV-чорак				2022 йил	
			январ	февраль	март	апрел	май	июн	июл	август	сентябр	октябр	ноябрь	декабрь			
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	
	Хонқа туман Тома маҳалласи Тома кўчасининг (0,996 км) жорий таъмирлаш ишларини бажариш														894 000 000		




Бутортмачи: *Р. Матчинов*

Р. Матчинов.

Пудратчи:

Олиев Ж. Ортиков.




Хонка туман Тома махалласи Тома кўчасининг (0,996 км) жорий таъмирлаш ишларини бажариш буйича молиялаштириш графигига мувофиқ жорий баҳода ишлар босқичи қиймати курсатилган ҳолда булиниши

Илова1

Молиялаштириш шarti	Молиялаштириш ойлари											
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Олдиндан тулов 30%										268 200 000		
Бажарилган ишларга асосан 70%												625 800 000

Хонка туман «Ободонлаштириш»
бoшқармаси бошлиғи:



Р. Магчанов.

«Хива Стандарг плус»

МЧЖ раҳбари:

Ж. Ортиков.

